



IBRAHIM MUMINOV'S ACTIVITIES IN THE ACADEMY OF SCIENCES OF UZBEKISTAN SYSTEM

Temur Muminov

Tashkent University of Applied Sciences Acting Associate Professor

Department of "History and Social Sciences", PhD

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Academy of Sciences, scientist, social sciences, Academy of Sciences, historical heritage, philosophy, scientific research, struggle, scientific courage, scientific school, portrait and biography, intellectual, patriot, nationalist, recognition, public figure.

Received: 24.01.26

Accepted: 25.01.26

Published: 26.01.26

Abstract: The article covers the life and work of the prominent philosopher, scientist, patriot, and courageous intellectual Ibrahim Muminov, who made a huge contribution to the development of science in Uzbekistan. Special attention was paid to the scientific heritage and contributions of Academician Ibrahim Muminov in the field of philosophy. His activities as a public figure and social views are also analyzed. It widely covers Ibrahim Muminov's effective work in the system of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Its role and significance in the development of national science are substantiated.

IBROHIM MO'MINOVNING O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI TIZIMIDA FAOLIYATI

Temur Mo'minov

"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası t.f.f.d (PhD) v.b., dotsenti

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Fanlar akademiyasi, olim, ijtimoiy fanlar, fanlar akademiyasi, tarixiy meros, falsafa, ilmiy tadqiqot, kurash, ilmiy jasorat, ilmiy maktab, surat va siyrat, ziyoli, vatanparvar, millatparvar, e'tirof, jamoat arbobi.

Annotatsiy: Mazkur maqolada O'zbekistonda ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan yirik faylasuf olim, millatparvar va jasoratli ziyoli Ibrohim Mo'minovning hayoti hamda faoliyati yoritilgan. Unda akademik Ibrohim Mo'minovning ilmiy merosi va falsafa sohasidagi xizmatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, uning jamoat arbobi

sifatidagi faoliyati va ijtimoiy qarashlari tahlil qilingan. Maqolada Ibrohim Mo‘minovning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi samarali faoliyati keng yoritib berilgan. Uning milliy ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИБРАГИМА МУМИНОВА В СИСТЕМЕ АКАДЕМИИ НАУК УЗБЕКИСТАНА

Темура Муминова

Ташкентский университет прикладных наук

и.о. доцента кафедры "История и общественные науки", PhD

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Академия наук, ученый, общественные науки, академия наук, историческое наследие, философия, научное исследование, борьба, научная доблесть, научная школа, образ и биография, интеллигенция, патриот, националист, признание, общественный деятель.

Аннотация: В данной статье освещается жизнь и деятельность крупного ученого-философа, патриота и мужественного интеллигента Ибрагима Муминова, внесшего огромный вклад в развитие науки в Узбекистане. В нем особое внимание уделено научному наследию и заслугам академика Ибрагима Муминова в области философии. Также были проанализированы его деятельность и социальные взгляды как общественного деятеля. В статье широко освещается плодотворная деятельность Ибрагима Муминова в системе Академии наук Узбекистана. Обосновано его место и значение в развитии национальной науки.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy va tashkiliy faoliyatida faylasuf Ibrohim Mo‘minovning o‘rni juda beqiyos bo‘lib, turli sohalar bo‘yicha mashhur va malakali olimlar yetishib chiqishida o‘rni katta bo‘lgan.

Muhokama va natijalar. 1955 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasini yuqori malakali va yetuk mutaxasis olimlar bilan mustahkamlash maqsadida Ibrohim Mo‘minov mazkur muassasaga ishga taklif etiladi va Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti direktori etib tayinlanadi [1].

Akademik A.K. Valiyev bu jarayonlarni quyidagicha xotirlaydi: “Ibrohim Mo‘minov Toshkentga 1955 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutiga direktorlik lavozimiga Samarqanddan keldilar. Shu institutga kelgan kunlaridan boshlab falsafa fanini akademiyada rivojlantirishga kirishdilar. Shu yilning o‘zidayoq institut huzurida falsafa sektori ochildi” [2].

Ta'kidlash joizki, bu davrda Fanlar akademiyasi tizimida falsafa sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmas, shu sababli Ibrohim Mo'minovning tashabbusi bilan Tarix va arxeologiya instituti tarkibida falsafa masalalarini o'rganishga ixtisoslashtirilgan hamda yosh ilmiy xodimlar va aspirantlarni o'zida birlashtirgan falsafa shu'ba tashkil etilgan edi.

1956 yilning oktabrida Ibrohim Mo'minov O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi va ayni paytda, Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti etib saylanadi [3]. Shu tariqa ular O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida ijtimoiy fanlar sohasidagi barcha ilmiy tadqiqotlarga rahbarlik qilishdek murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi.

Ibrohim Mo'minov 18 yil mobaynida O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti lavozimida ishladi. Bu davrda u o'zining bilimi va salohiyatini ijtimoiy ilmlarni rivojlantirishga qaratdi. Bu sohada yosh mutaxassis olimlarni yetishtirib tarbiyaladi. O'zbek fani yutuqlarini keng targ'ib qila oldi.

Ibrohim Mo'minov FAning vitse-prezidenti sifatida faoliyat olib borgan yillarda akademiya tarkibi ijtimoiy fanlar vakillari bilan to'lishda davom etdi. Xususan, adabiyotshunoslar Komil Yashin, Vohid Abdullayev, G. Abdurahmonov, M.Nurmuxamedov, I. Sultonov, I. Sagitov, tilshunos Sh. Shoabdurahmonov, huquqshunoslar A. Eshonov, A. A'zamxo'jayev, Sh. O'razayev, faylasuf M. Xayrullayev, iqtisodchilar K. Bedrinsev, A. Aminov, S. Ziyadullayev, K. Lapkinlar, tarixchi Rahima Aminova, san'atshunos va arxeolog G. Pugachenkova, shuningdek o'zbek xalq musiqasi tarixi bo'yicha yirik mutaxassis Yunus Rajabiy dastlab muxbir-a'zolikka, so'ng akademiklikka saylandi [4].

Ibrohim Mo'minovning shaxsiyatini o'rganganda, uning ko'hna tariximizga bo'lgan munosabati va muhabbatini alohida qayd etish lozim. Ya'ni sovet tuzumining qatag'on siyosati bir oz yumshab, jamiyatda "iliqlik" va erkinlikning ilk uchqunlari vujudga kelganidan foydalanib, o'z ustozlari Abdurauf Fitrat, V.L. Vyatkin, Po'lat Soliyev va Muso Saidjonovlarning milliy tariximizni o'rganish borasida boshlanib, yarim yo'lda qolib ketgan reja va armonlarini amalga oshirishga bel bog'laydi. Chunki Ibrohim Mo'minov Yahyo G'ulomov, Abdurahmon Hamroyev, Rashid Nabiyeu kabi mashhur olimlar qatori O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining tarixini ilmiy asosda o'rganish maktabini yaratgan va O'zbekistonda tarix fani sohasida birinchi bo'lib professor unvoniga sazovor bo'lgan Po'lat Soliyevich Soliyev asos solgan maktabda voyaga yetgan edi [5].

XX asrning 20-30 yillarida nashr etilgan barcha ilmiy asarlarda (hatto 1947 yilda e'lon qilingan "O'zbekiston xalqlari tarixi"ning 2-jildida ham), Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Turkiston xalqlarining istibdodga solingani to'g'ri baholangan, Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati tarixiy hujjatlar asosida haqqaoniy ochib tashlangan edi.

XX asrning 50-60 yillarida paydo bo'lgan tarix kitoblarida esa bu hodisa boshqacha nuqtai-nazardan yoritila boshlandi. "O'rta Osiyoning bosib olinishi" degan jumla "qo'shib olinishi" tarzida "yumshatib" qo'llaniladigan bo'ldi. Ijtimoiy fanlarda bu "qo'shilishning" progressiv ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatishga zo'r berildi. Rossiya imperiyasi istibdodiga qarshi qaratilgan 1898 yilgi Andijon va 1916 yildagi Jizzax qo'zg'olonlariga "reaksion qo'zg'olon" degan tamg'a bosildi. O'lis tarixda yashagan ajdodlarimiz: buyuk olimlar va shoirlarimizni "sinfiy kurash"ni anglab yetmaganlikda ayblash, "dunyoqarashi cheklanganligi"ni isbotlash, butun o'tmishni ikki qismga – "progressiv" va "reaksion"ga ajratib o'rganish odatiy tus oldi. Hukmdorlarning deyarli barchasi – Amir Temurmi, Husayn Bayqaro va boshqalar qora bo'yoqlarda ko'rsatildi. Xalqni ma'rifatga, ilm olishga chaqirgan jadidlar – yangilanish tarafdorlarining "xalqqa qarshi" qaratilgan faoliyatini "fosh etish" uchun bir necha o'nlab kitoblar bitildi [6]. Ibrohim Mo'minovga mana shunday murakkab bir vaziyatda O'zbekistonda tarix va boshqa ijtimoiy fanlar sohasiga yetakchilik qilish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi topshirilgan edi.

1955 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining direktori etib tayinlangan Ibrohim Mo'minov bir yil davomida ushbu lavozimda faoliyat olib borgan bo'lsada[7], Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida o'n sakkiz yil davomida milliy tarixchilik maktabining haqiqiy jonkuyari bo'la oldi.

Ma'lumki, 1947–1950-yillarda rus tilida "История народов Узбекистана" [8] nomli ikki tomli umumlashgan fundamental ish nashrdan chiqarilgan edi. Ibrohim Mo'minovning bevosita rahbarligida 1955–1957-yillarda ikki jildlik (uch kitobdan iborat) "O'zbekiston SSR tarixi" va 1967–1968-yillarda to'rt jildli "O'zbekiston SSR tarixi (qadimgi davrdan bizning kunlargacha)" yaratilib, o'zbek va rus tillarida nashr etildi [9]. Albatta, bu asarlarning nashrga tayyorlanishi va chop etilishi, ayniqsa, O'zbekiston tarixining o'zbek tilida chop etilishi Ibrohim Mo'minovning xizmatlari beqiyosdir.

Ibrohim Mo'minov nafaqat zamonaviy o'zbek falsafa maktabining asoschisi, balki yirik tarixchi olim ham edi. Uning ilmiy tadqiqotlarini o'rgangan har bir o'quvchi Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-tarixiy ildizi chuqur ekanligiga va bu ildizlar uzoq o'tmishga borib taqalishiga iqror bo'ladi. Bu sovet yillarida shakllangan va ilmiy qarashlarda chuqur ildiz otgan "kommunistik mafkura"ning muhim qismi, ya'ni Markaziy Osiyo xalqlari azaldan madaniyatsiz, qashshoq bo'lgan, haqiqiy madaniyat bu mintaqaga G'arbdan, chunonchi, Rossiyadan kelganligi to'g'risidagi g'ayriilmiy aqidalarni fosh etadi [10].

"Iliqlik" yillarida O'zbekiston fani ham dunyo miqyosiga chiqdi. Bu davrda Ibrohim Mo'minov qatorida ijtimoiy-gumanitar soha vakillari Y. G'ulomov, R. Nabiyev, X.

Sulaymonova, O. Aminov, I. Iskandarov, R. Aminova va E. Yusupovlar o'zbek fanini dunyoga mashhur qildilar, ularning asarlari xorijiy mamlakatlarda nashr etildi. Ibrohim Mo'minov asos solgan ushbu an'ana akademik Erkin Yusupov tomonidan munosib davom ettirildi. 1979–1990 yillarda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida faoliyat olib borgan Erkin Yusupov o'zining ilmiy va ijtimoiy yo'nalishda olib borgan ishlari bilan o'zbek ilm-fani obro'-e'tiborini butun SSSRga namoyon eta oldi. Ijtimoiy fanlar sohasidagi milliy kadrlar ichida Ibrohim Mo'minovdan keyin, u 1987-yildan boshlab SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, SSSR Oliy Soveti deputati sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ibrohim Mo'minov boshlab bergan ilmiy an'analarni ziddiyatli 1980-yillarda ham munosib himoyachisi bo'la oldi[11].

Xulosa o'rnida aytasak, Ibrohim Mo'minov XX asrning 40-50 yillarida o'zining mashaqqatli mehnati va amalga oshirgan tadqiqotlari bilan zamonaviy o'zbek falsafa maktabining yaratuvchisi hisoblanadi. Mustabid tuzumning dog'uli siyosati doimo aholining eng ongli, uyg'oq qatlami bo'lmish ziyolilarni ta'qib ostiga olgan. Bunday sharoitda, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida faoliyat olib borganlar boshi tepasida hamisha "Damashq qilichi" osilib turganligini his qilib turishgan.

Shunday og'ir sharoitda Ibrohim Mo'minov o'tmish merosimizni o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni olib borish uchun katta jur'at bilan ish tutdilar. Ibrohim Mo'minovning sa'y-harakatlari bilan ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi olimlarning tadqiqotlarida buyuk allomalarimizning nomlari paydo bo'ldi. Uning butun ongli hayoti O'zbekistonda zamonaviy ilm-fanni, xususan ijtimoiy fanlarni rivojlantirishga qaratilgan edi.

1960 yillarda Ibrohim Mo'minovning tashabbusi bilan Fanlar akademiyasi huzurida estetika shu'basi tuzildi va juda ko'plab yoshlarning estetika, falsafa va badiiy tanqid bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratildi. Ushbu va Fanlar akademiyasi tizimidagi xizmatlari uchun Ibrohim Mo'minovga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoni berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Фанлар академияси архиви 1-жамғарма, 2-л-рўйхат, 114-сақлов бирлиги, 1-варак
2. Валиев А.К. И.М. Мўминов асарларида ижтимоий муаммолар // Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. 40-бет
3. Абдуллаев Х.М. 40 лет советской науки в Узбекистане. Изд-во АН УзССР. – Ташкент, 1958. – С.54
4. Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. Краткий очерк. Отв. ред. М.К. Нурмухаммедов. – Ташкент: Фан, 1970. С. 86

5. Темиров Ф. У. Пўлат Солиев (рисола). Лойиха муаллифи ва масъул муҳаррир Қ.К. Ражабов. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – 4 б.
6. Абдураимов М. Темур ва Тўхтамиш. Масъул муҳаррир: К.Норматов. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. 77-78-бетлар
7. Ўзбекистон Фанлар академияси архиви 1-жамғарма, 2-л-рўйхат, 114-сақлов бирлиги, 1-варақ орқа томони
8. История народов Узбекистана. Том второй. От образования государства Шейбанидов до Великой Октябрьской Социалистической революции. Под ред. акад. С.В. Бахрушина и др. – Ташкент: Фан, 1947. – 514 с.
9. Академии наук Республики Узбекистан 50 лет. – Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. – С. 31; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси 50 йил. Тошкент: Фан, 1993. Б. 34.
10. Шермухамедов С. Қомусий олим. – Тошкент: ЎМЭ нашриёти, 1998. Б. 12.
11. Юсупов Э. Зулмат ичида зиё излаб. Хотиралар. Биринчи китоб. – Тошкент: Turon-iqbol, 2019. Б. 12-13.